

MUZEY EKSPOZITSIYASIDA TASVIRIY SAN`AT ASARLARINI JOYLASHTIRISH MASALALARI

Sultonova Kamola Komiljon qizi

“Shahrisabz” davlat muzey-qoʻriqxonasi rassom-restavratori

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik davrida muzeylardagi ekspozitsiya, sanʼat asarlarini joylashtirish masalalari, muzey ekspozitsiyasini yoritishda tasviriy sanʼat asarlarining oʻrni va ahamiyati, ularni tabiiy omillardan himoyalash tartiblari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы экспозиции в музеях в период независимости, размещения произведений искусства, роль и значение произведений изобразительного искусства в освещении музейных экспозиций, а также порядок их защиты от природных факторов.

Annotation: This article discusses the issues of exposition in museums during the period of independence, the placement of works of art, the role and importance of works of fine art in illuminating museum expositions, and the procedures for protecting them from natural factors.

Kalit soʻz: Ekspozitsiya, etikitaj, panno, ranglar gammasi, mahobatli rang tasvir, masshtab, perspektiva, Brayl alifbosi.

Mustaqillikdan soʻng, avval ahamiyat berilmagan tariximizni tiklashga, asrashga, ularni buzgʻunchi gʻoyalar yoʻlida notoʻgʻri talqin qilgan ayrim kimsalarning kitoblarini emas, haq maʼlumotlarni toʻplashga va chop etishga, xalqimizga moddiy va maʼnaviy merosimizning asl mohiyatini koʻrsatishga qattiq bel bogʻlandi. Mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi bilan bir qatorda uning milliy qadriyatlari, milliy oʻzligi qanchalik muhim ekanligi aniq namoyon boʻldi.

Inchunun, yurtimiz tarixi boy va goʻzaldir. Shundan kelib chiqib, vatanimizning istalgan burchagida oʻtmishimizga oyna boʻlib qad rostlagan meʼmoriy yodgorliklar, tarixiy qoʻlyozmalar, osori-atiqalarni uchratish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab arxitektura va moddiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va restavratsiyalash Oʻzbekiston davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylandi. Oʻtgan vaqt davomida xarobalar orasidan meʼmorlarning dunyo sivilizatsiyasining bebaho xazinasidan oʻrin olgan koʻplab asarlari tiklandi. Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa budda ibodatxonasi, Qirqqiz qalʼasi, Iso Termiziy maqbarasi, Sulton Saodat ansambli va Hakim at-Termiziy majmuasi, Xorazm viloyatidagi Ichan qalʼa muzey-qoʻriqxonasining tarixiy-meʼmoriy qismi, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining tarixiy zonalar, Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi Ayoq qalʼa va Tuproq qalʼaning arxeologik-meʼmoriy yodgorliklari shular jumlasidandir.

Oʻzbekistonning buyuk tarix va milliy qadriyatlarni asrab avaylash yoʻlida erishgan yutuqlari, chekkan zahmati boshqa qator davlatlarga oʻrnak boʻla oladi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Taʼlim, fan va madaniyat masalalari boʻyicha islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent (2007 yil) va Buxoroning (2020 yil) islom madaniyati poytaxti deb eʼlon

qilinishi, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shahalarimizni YUNESKO ning jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi - buning yaqqol tasdig'idir.²⁶

Madaniy merosimizni asrab avaylash va kelajak avlodga boricha taqdim qilish uchun muzeylar faoliyatini yaxshilash ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Taraqqiyot davri bo'lmish XXI asr muzeylari madaniy-tarixiy va tabiiy ilmiy qadriyatlarni ifodalashga mo'ljallangan ijtimoiy axborot institutini o'zida mujassamlashtiradi. Muzeylar faqatgina tabiat va jamiyatning xilma - xilligini tasvirlamaydi, balki ular, muhim ilmiy - ma'rifiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi vosita hisoblanadi. Shu haqiqatdan kelib chiqib, so'nggi yillarda respublikamiz poytaxti hamda viloyat va tumanlarda bir qator turli mavzudagi muzeylar barpo etildi, eskilari ta'mirlandi, ekspozitsiyalar joylashuvi va boyligiga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kundagi muzeylar faoliyatining o'z oldiga qo'ygan maqsadi- asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy axborotni to'plash va muhofaza qilish, yangi avlodga asl mohiyatini anglatish hisoblanadi. Aql ko'zi bilan qaralsa, muzeyshunoslikning o'zi, bu noyob moddiy va ma'naviy manbalarni to'plash, muzey ishi muammolarining ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Respublikamizda muzeyshunoslik va muzeylar faoliyatini tashkil etishda bir qator dolzarb vazifalar mavjud. Muzeyshunoslikda muzey ashyolarini to'plash, ularni tizimlashtirish jamg'armalarni boyitish, ashyo-buyumlarni ta'mirlash, konservatsiya uslublarini yaratish masalalari, muzey ekspozitsiyalari eksponatlari, ularni bezash va namoyish etish usullari, mavjud tarixiy ashyolarni o'rganish ushbu vazifalarni uslubiy va nazariy jihatdan ishlab chiqish ahamiyati jihatidan muhimdir. Jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, muzey faoliyatining samaradorligi jamiyatda kishilarning estetik didi, muzeylardagi ilmiy tadqiqot natijalari, kolleksiya, ekspozitsiyalarni konservatsiyalash, ta'mirlash, saqlash, muhofaza qilish, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, muzey faoliyatining boshqa turlari darajasini aniqlash va tashkil etish mezonlari orqali belgilanadi. Respublika tarixiy muzeylarida saqlanayotgan eng boy jamg'arma to'plamlari: arxeologiya, etnografiya, numizmatika, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi, harbiy tarix, geraldika, epigrafika kabi fanlardagi tadqiqotlar uchun ulkan baza hisoblanadi. Zero, tarixiy muzeylardagi ilmiy tadqiqot faoliyati badiiy va axloqiy qiymatga ega yangi tarixiy ma'lumotlar olish manbai sifatida muzey ashyolarini o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi. Muzeylarning yana bir muhim jihati, ularning yirik tarixiy shaxslar yoki voqea-hodisalarni o'rganish uchun barcha ma'lumotlar mavjud bo'lgan yagona yoki asosiy markaz ekanligidir. Ularni o'rganish ulkan milliy va g'oyaviy - tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Muzey materiallarini monografiya, ilmiy asarlar tarzida va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etish xalqimizning tarixiy ongini boyitishga, ularda faxr va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda yordam beradi.²⁷

Muzey ekspozitsiyasida xususan tasviriy san'at tarix haqida jonli tasavvurga ega bo'lishimiz uchun ulkan ahamiyat kasb etuvchi omil hisoblanadi. Odamzot yaralibdiki, tushunchalari, hayot tarzini ifodalashga harakat qiladi. Chizish anglatish uchun eng to'g'ri asoslardan biridir. Inson evalutsiyasining har bir bosqichida insoniyat taraqqiyoti bilan bir

²⁶ Zafar Hakimov. "Qaddin qayta rostlagan obidalar". Moziydan sado. 4/88. 2020. B30-33

²⁷ Дустназарова Махфуза Бахтиёровна. "Музей Маркетинги ва Менежментини ривожлантириш омиллари" Ўзбекистон Музейларининг Долзарб Муаммолари. Шахрисабз 2024. Б.326-327-328-329

qatorda san`at ham rivojlanib bordi. Jumladan Amir Temur va temuriylar davri tasviriy san`ati islom san`ati qoidalari asosida arxitektura bezaklari, miniatyura, xattotlik, kashtachilik, gilamdo`zlik, kandakorlik, yog`och o`ymakorligi kabilar rivoj topdi. Amir Temur o`z davrida yirik me`moriy obidalarining bunyodkori hisoblandi. U arxitektura bezaklarining islmiy va geometrik naqshlar bilan uyg`unligini tasvirlashlariga alohida e`tibor qaratgan. Samarqanddagi Bog`i Dilkusho, Bog`i Shamol, Ko`ksaroy, Oqsaroy kabi obidalarining betakror hamda hashamatli devoriy bezaklari haqida buyuk allomalar : Sharafiddin Ali Yazdiy, Zahiriddin Muhammad Bobur , Ibn Arabshohlar to`lqinlanib hikoya qilganlar. Amir Temurning qator davlatlarga qilgan yurushlari davomida o`sha davrning eng taniqli me`mor va ustalari, san`at vakillari, hunarmandlarini vataniga yuborishi mahalliy ustalar bilan birgalikda misli ko`rilmas darajada go`zal inshootlar yaratilishiga hissa qo`shganligi hech kinga sir emas. O`sha davrdagi obidalarining qurulish strukturasi, koshinlarning ranglari va tuzilishi bunga yaqqol misol bo`la oladi.

Bugungi kunga kelib ham san`at asarlarining mavqeyi oshsa oshdiki, tushgani yo`q. Ayniqsa, so`nggi yillarda amaldagi prezident tomonidan madaniy va ma`naviy merosimizni qayta tiklash hamda asrashga qaratilgan bir qancha qarorlar qabul qilindi, farmoyishlar berildi, aniq chora tadbirlar amalga oshirildi. Zamonaviy san`at va milliy madaniyatimizni rivojlantirish, ularning taraqqiy etishiga ko`maklashishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Mamlakat rahbarining O`zbekiston uchinchi renesans davriga poydevor qo`yayotganligini baralla aytayotgan bir davrda zamonaviy san`atni uchinchi renesans omili sifatida bemalol ko`ra olamiz.

Yangi Renessans hodisasini shakllantirishning muhim omillaridan biri bu O`zbekiston zamonaviy san`atining rivojlanish darajasi, uning insonlar va jamiyat hayotida kamerton bo`la olish qobiliyatidir. Bunda ( ilgari bo`lgani kabi) na hokimiyat, na rahbariyat ijodkorlarga yo`l- yo`riq ko`rsatmasligi kerak, ijodkorlarning o`zlari zamon dardi va tug`yonlarini qalban his etishlari va bu mavzuni san`atda aks ettirish uchun badiiy vositalarni topishlari zarur.²⁸

Muzey ekspozitsiyasining san`at asarlari bilan boyitilishi tomoshabinga o`zgacha zavq berishi bilan bir qatorda madaniy hordiq olishi, tarix haqida jonli tasavvurga ega bo`lishiga yordam beradi. Muzeylarni ham sayohat, ham ziyorat maskanlariga aylantirish, tomoshabinlar tomonidan muzeyni idrok etish psixologiyasini o`rganish muzey xodimlarining o`z oldiga qo`ygan ustuvor vazifalaridan bo`lishi lozim. Muzey ekspozitsiyasida san`at asarlari, suratlarning joy olishi muhimlik darajasini O`zbekiston kino san`ati muzeyi orqali ham ko`rishimiz mumkin. Muzey jamg`armasida 5000 dan ortiq kino san`ati tarixini muhrlagan surat va negativlar mavjud bo`lib, ilmiy- mavzuiy konsepsiyasi va ekspozitsiya dizayn yechimining professionalizmi bilan o`ziga jalb qiladi. Bu muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinlardan so`ralganda, muzey ko`rksiz, oq qora ranglardan iborat bo`ladi deb o`ylashganini ammo, bu fikrlari o`zini oqlamaganini aytishgan ekan.

Muzey xoh ilmiy, xoh badiiy, xoh mavzuiy bo`lsin suratlar, tasviriy san`at asarlari uning jozibadorligini oshirib boradi. Muzey ekspozitsiyasida san`at asarlarini joylashtirishda quyidagi masalalarga alohida e`tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

²⁸ Akbar Hakimov. "XXI asrning madaniy renessansi: Haqiqat va istiqbollari". Moziydan sado 4/88 2020 B1-9

1. San`at asarlarining muzey mavzusiga moslik darajasini aniqlash.

Ma`lum bir davr haqida tarkibiy qurilmalari shakllantirilayotgan muzey ekspozitsiyasiga o`sha davrga xos bo`lgan san`at asarlarini joylashtirish eng birinchi bosqich hisoblanadi. Masalan, deydik XIX asr temiryo`l tarmoqlarining Turkiston hududiga kirib kelish tarixi haqida ekspozitsiya tashkil qilinayotgan bo`lsa, unda Rossiya imperiyasi hududidagi temiryo`l tarmoqlari tarixini yoritish maqsadga muvofiq emas. Sababi, mazkur hudud geografik jihatdan Turkiston hududi hisoblanmaydi.

2. Muzey xonalarining joylashuvi, balandligi, masshtabini aniqlash.

Perspektiva va masshtab qarash nuqtasiga to`g`ri proporsional bo`lishi tomoshabinga asarni to`laqonli idrok qilishga katta yordam beradigan omil hisoblanadi. Umuman olganda tomoshabinning qabul qilish imkoniyatini oshirish uchun unga mos bo`lgan muhit, bino, xona tanlash kerak. Masalan, O`rta Osiyo bosh muzeyi tashkil qilingan vaqtda Usmon mushafini namoyishga qo`yish uchun alohida xona tanlangan va u xonada Usmon mushafidan boshqa ashyolar namoyishga qo`yilmagan. Chunki ashyoning o`zi yirik hajmda va e`tiborni boshqa ashyolar chalg`itmasligi masalasi hisobga olingan.

3. San`at asarlarining hajmi ya`ni dastgohli yoki monumental rang tasvir, dastgohli yoki monumental miniatyura ekanligiga qarab, xona balandligi, uzun yoki aksincha qisqaligiga ko`ra joylashtirish. Uzun va baland xonalarda monumental, mahobatli asarlarni joylashtirish tomoshabinga asarni to`liqligicha, uni umumiy fonda yaxlit holatda (petno) ko`rishga yordam beradi. Miniatyura, qisqa o`lchamga ega asarlarni ko`zga yaqin joyda, iloji bo`lsa 20-30 gradus burchakli vetrinalarda qo`yish, ularni mayda detallargacha ko`rish imkoniyatini yaratish zarur. Bundan tashqari ba`zi bir asarlar borki, alohida qismli asarlar bo`lib, (seriyali) masshtabi yuqori, asarlarni ketma ketlikda qo`yish imkoniyati yuqoriligi sabab, ana shunday xonalarda qo`yiladi.

4. San`at asarining orqa foniga rang tanlash masalalari.

Ko`p figurali, jang manzaralari tasvirlangan asarlarning orqa foniga ranggi to`qroq bo`lgan ranglardan foydalangan ma`qul. Masalan, kulrang, qora, to`q qizil, jigarrang, to`q ko`k va shunga o`xshash rang gammalarini xiralashgan holatida qo`llagan ma`qul. Bu asarni yaxlit ko`rishga, e`tibor nuqtasini asarning sathiga qaratishga yordam beradi. Portret va badiiy janrda ishlangan asar mavzusining yorqinligiga qarab och rangdagi fon tanlash joiz hisoblanadi. Binobarin, och rangdagi fon, asar mavzusining yengilligi bilan uyg`un holda tomoshabinni zeriktirmaydi, balki asarni tomosha qilishda ancha qo`l keladi.

5. Asarlarni joylashtirishda yoritish tizimlarining ahamiyati.

Tasviriy san`at asarlarining yuza qismini odatda tabiiy ta`sirdan himoyalash va rang gammalarini yorqinligini ta`minlash uchun maxsus rangsiz qatlamdan foydalaniladi. Bu asar yuzasini silliqlab, yorqin tus olishiga yordam beradi. Agar chiroq joylashuvi noto`g`ri o`rnatilsa, asarga tushayotgan yorug`lik asar yuzasining silliqligi sababidan, asarning o`zini emas, undan qaytayotgan yorug`likni ko`rishga zamin yaratishi mumkin. Chiroqlarning joylashuvi tomoshabin nigohini to`g`ridan to`g`ri asarga qaratishi, uni boricha ko`rishga, o`sha muhit ta`siriga kirishiga sabab bo`lishi kerak. Asarlarni yoritishda xavfsizlik qoidalari amal qilish muhim rol o`ynaydi. Masalan, cho`g`lanma lampalardan foydalanish asar yuzasining deformatsiyalashuviga, ranglarning qorayishiga, sifatning buzilishiga olib keladi. Yoritishda nisbatan xavfsiz bo`lgan led lampalaridan foydalanish joizdir.

6. Tasviriy san`at asarlarining chetidagi romlarni tanlash masalalari.

Asarning janrlariga ko`ra uning romlarini tanlash ekspozitsiyaning uyg`unligini ta`minlashga katta hissa qo`shuvchi omillardan hisoblanadi. Masalan, maishiy janrda ishlangan suratlarining romlari nisbatan soddaroq, asar ranglariga mos ravishda tanlanishi foydadan holi bo`lmaydi. Muhim tarixiy voqealar aks etgan asarlar, jumladan, taniqli shaxslarning siymosi tasvirlangan portret janridagi asarlarning romlari qalinroq, jimjimador va hashamatli, nisbatan yorqinroq bo`lishi, asar ahamiyatini ochib berish bilan bir qatorda ekspozitsiyalarning o`zgachaligini ta`minlaydi.

7. Asar haqidagi informatsion m`lumotlarni beruvchi manbalar. (Etikitaj)

Asar haqidagi ma`lumotlarni beruvchi manbalar ahamiyati jihatidan yuqori o`rinni egallovchi omillar sirasiga kiradi. Etikitajlardagi ma`lumotlar tomoshabinlar o`qishlari va tushunishlari mumkin bo`lgan o`lchamda va tilda yozilishi kerak. Etikitajlarni asosan uch tilda yozish: mahalliy til, rus tili va ingliz tillaridagi tarjimasi bilan yozish odatga aylangan. Bundan tashqari, ko`rish imkoniyati cheklanganlar uchun brayl alifbosidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Uni dizayni bilan esa nutahasislar shug`ullanishlari ma`qul.

8. Muzei ekspozitsiyalarini joylashtirishda tajribali, kreativ yondashuvchi ekspozitsiya kuratorlarini jalb qilish masalalari.

Kreativ yondashuvlik, asarlarning joylashuvi, mavzu jihatidan ketma-ketlikka rioya qilinishini ta`minlash, ranglar uyg`unligiga e`tibor qaratish muzei ekspozitsiyalarining badiiylashuviga zamin yaratadi.

9. Muzei ekspozitsiyasi zallarida ashyoning saqlanish holatiga e`tibor qaratish.

Asarlarni saqlashda, muhofazalashda quyidagi omillarga diqqat qilish lozim:

1. Harorat. Namlik.

Harorat va namlikning tez-tez o`zgarib turishi qog`ozda ishlangan asarlarga zarar yetkazadi. Haroratning o`zgarishiga javoban qog`oz tolalarining birikish kuchi namlikning singishi sababli zaiflashadi va qog`ozga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Namlikning adsorbsiyasi va desorbsiyasi o`rtasidagi chegara taxminan 65% ni tashkil qiladi va odatda 55 dan 65% gacha, qog`oz o`ziga yetarlicha namlikni saqlab turishi mumkin. Agar namlik muntazam 60% dan oshsa, mog`or sababli shikastlanish xavfi tug`iladi. Agar ortiqcha namlik muntazam saqlanib tursa, namlikni yo`qotish uchun qurituvchi (silikagel) dan foydalanish kerak.

2. Mog`orlar, hasharotlar va kemiruvchilar.

3. Yorug`lik, nur ta`siri.

4. Ifloslantiruvchi manbalar.

5. Suv va namlik.

6. Jismoniy estetik shikastlanish.

7. Yong`in va o`g`irlik kabilarni o`rganib borish doimiy dolzarb masala hisoblanadi.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, muzeylarda tasviriy san`at asarlari namoyishi nafaqat tomoshabinlarning qiziqishi ortishiga, balki ularning estetik zavq olishiga zamin yaratadi.

Shuning bilan birhga muzei sohasi mutaxasislariga ekspozitsiya namoyishi tartib qoidalarini chuqur tadqiq qilis mas`uliatini ham yuklaydi. Bunda doimiy rivojlantirilgan bilim, ko`nkma, malaka va tajriba eng asosiy vositaga aylanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zafar Hakimov. "Qaddin qayta rostlagan obidalar" . Moziydan sado .4/88 2020. B30-33
2. Дустназарова Махфуза Бахтиёровна . “ Музей Маркетинги ва Менежментини ривожлантириш омиллари ” Ўзбекистон Музейларининг Долзарб Муаммолари. Шахрисабз 2024. Б.326-327-328-329
3. Akbar Hakimov. "XXI asrning madaniy renessansi: Haqiqat va istiqbollar ". Moziydan sado 4/88 2020 B1-9
4. Choi Young-chang. Konservatsiya fani bo'yicha nazariy qo'llanma. Koreya Merosi Xizmati, Koreya Merosi Agentligi. 2024 yil.